

KURASH TURLARINING O'ZBEKISTON JISMONIY TARBIYA TIZIMIDA TUTGAN O'RNI

*Nuraliyeva O'g'iloy Shomuratovna,
Qarshi davlat universiteti, "Sport faoliyati" kafedrasida dotsenti*

Annotatsiya: Maqolada kurash turlarining O'zbekiston Respublikasi jismoniy tarbiya tizimida tutgan o'rnini aniqlashga bag'ishlangan. Ularning kirib kelishi, rivojlanishi, gegienik, tashviqot-targ'ibot, tarbiyaviy ahamiyati, jismoniy tarbiya vositasi sifatida jismoniy tayyorgarlikdagi samarali roli, yoshlarni tarbiyalashning samarali vositasi sifatida muhimligi, shaxsni jismoniy barkamollikka erishtirishdagi o'rni, kelajak istiqbollari, muammolari va yechimlari haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: jismoniy tarbiya tizimi, zamonaviy kurash turlari, jismoniy tayyorgarlik, jismoniy barkamollik.

РОЛЬ ВИДОВ БОРЬБЫ В СИСТЕМЕ ФИЗИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ УЗБЕКИСТАНА

*Нуралиева Угилой Шомуратовна,
доцент кафедры «Sport faoliyati», Каршинский государственный университет*

Аннотация: Статья посвящена определению места видов борьбы в системе физического воспитания Республики Узбекистан. Речь идет об их проникновении, развитии, гигиеническом, пропагандистском, воспитательном значении, эффективной роли в физической подготовке как средстве физического воспитания, значении как действенного средства воспитания молодежи, роли в достижении человеком физического совершенства, перспективах на будущее, проблемах и решениях.

Ключевые слова: система физического воспитания, современные виды борьбы, физическая подготовка, физическое совершенство.

THE ROLE OF WRESTLING IN THE SYSTEM OF PHYSICAL EDUCATION IN UZBEKISTAN

*Nuraliyeva Ugiloy Shomuratovna,
Associate Professor of the Department of «Sport faoliyati» Karshi State University*

Annotation: The article is devoted to determining the place of types of wrestling in the system of physical education of the Republic of Uzbekistan. We are talking about their penetration, development, hygienic, propaganda, educational significance, effective role in physical training as a means of physical education, importance as an effective means of educating young people, role in achieving physical perfection by a person, prospects for the future, problems and solutions.

Keywords: physical education system, modern types of wrestling, physical training, physical perfection.

Kirish. Mamlakatimizda jismoniy tarbiya tizimini rivojlantirish, sport turlari, jumladan kurash turlarini rivojlantirishga katta ahamiyat qaratilmoqda. Mamlakatimiz Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning ma'ruzalarida [1] va hukumatimizning bir qator qarorlari bunga misol bo'la oladi [2].

Bugungi kunda kurash turlari nafaqat mamlakatimizda, balki butun dunyoda jismoniy

tarbiya tizimining asosiy bo'lagi bo'lib qolmoqda. Shu sababli kurash turlariga e'tibor qaratish, uning O'zbekiston jismoniy tarbiya tizimida lohida tutgan o'rnini aniqlash asosiy dolzarblik kasb etmoqda.

Jismoniy tarbiya tizimida zamonaviy kurash musobaqalari o'quv-tarbiya ishining zaruriy tarkibiy qismidir. Ular jismoniy tarbiyani takomillashtirishga, kishilarning ijodiy kuch va talantlarini keng ochishga yordam bermoqda. Kurash turlari targ'ibotning zarur vositasi hisoblanib, ular jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlariga aholining asosiy qatlamini va yoshlarni jalb qilyapti.

So'nggi yillarda ushbu sohada to'planib qolgan muammolarni bartaraf etish orqali kurashning jahondagi nufuzini yanada oshirish, barcha aholi qatlami, ayniqsa yoshlarning sog'lom turmush tarziga intilishlarini ta'minlash, ularni mardlik, sadoqat, Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash, milliy xalq o'yinlaridan jahon sport turiga aylangan kurashga nisbatan g'urur, iftixor va faxrlanish hissini uyg'otish bugungi kundagi kurash mashg'ulotlarining asl mohiyatini belgilaydi.

Qadimgi davrlarda yoshlar turli xil jismoniy mashqlarga qiziqar edilar va ular orasida kurash eng sevimli va xalqona mashg'ulot turi edi. Uning jismoniy rivojlanish uchun ommaviyligi va ahamiyati shundan dalolat beradiki, qadimda ommaviy xalq sayillarida, to'ylarda kurash eng birinchi sport turi hisoblangan. Kurash bugungi kunda ham yoshlar, ayniqsa universitet talabalari orasida keng rivojlanganlik xususiyatiga ega milliy sport turidir.

Milliy qadriyatlarimiz, xususan mardlik, jasurlik, vatanparvarlik, gumanizm g'oyalarini o'zida mujassam etgan milliy sportimiz bo'lgan kurashni ommalashtirish, rivojlantirish va dunyoga tanitish hamda ushbu qadriyatimizni umumjahon durdonasiga aylantirish bo'yicha hukumatimiz tomonidan qator ishlar amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga, kurashning tobora ommalashib borayotganligi nufuzli xalqaro musobaqalarni tashkil qilishga, mavjud infratuzilma va moddiy-texnik bazani modernizatsiya qilishga, sport jihozlari va kiyimlari ta'minotini yaxshilashga, bu borada ishlab chiqarishni kengaytirishga, shuningdek, soha uchun malakali kadrlar, professional trenerlar, hakamlar tayyorlash, o'quv-uslubiy qo'llanmalar ishlab chiqish, kurashning ilmiy-metodologik bazasini boyitishga bo'lgan e'tiborni yanada kuchaytirishni talab etilmoqda.

Keyingi yillarda asrlar davomida mardlik, bag'rikenglik, olijanoblik va halollikning timsoli sifatida e'zozlanib kelingan, kurash turlarini yanada rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish bugungi kunning dolzarb muammolaridan biridir.

Tadqiqot maqsadi. Kurash turlarining O'zbekiston jismoniy tarbiya tizimida tutgan o'rnini aniqlash.

Tadqiqot metodlari. Kurash turlari aholini salomatligini mustahkamlash, yoshlarni jismoniy shakllantirish va Vatan himoyasiga tayyorlashning asosiy vositasi sifatida o'z o'rniga ega bo'lib kelayotganligini aniqlashga qaratilgan ilmiy manbalar tahlil etildi.

Tadqiqot natijalari va muhokamasi. Kurash turlari mamlakatimizda eng ommaviy sport turlaridan hisoblanadi. Uning uchun har xil turdagi harakatlar xosdir va bular raqib bilan yakka kurashishda amalga oshiriladi. Harakatlarning bunday hilma-hilligi nerv sistemasini, harakat apparatini mustahkamlashga, moddalar almashinuvini, organizmning barcha tizimlarining faoliyatini ya'shilashga yordam beradi.

Kurash turlari mehnat bilan band aholining ko'pgina qismi uchun, ayniqsa aqliy mehnat bilan band bo'lgan kishilar uchun faol dam olish vositasi hisoblanadi.

Kurash turlari sog'lomlashtirish-gigienik ahamiyatgagina emas, balki tashviqot-targ'ibot va tarbiyaviy ahamiyatga ham ega. Kurash turlari tomoshabinlarda sportchilarga o'xshab kuchli, chidamli, abjir, chaqqon, tezkor bo'lishga qiziqish o'yg'otadi.

Kurash turlari bilan shug'ullanish qunt-matonat, jasurlik, qat'iyatlilik, o'ziga ishonch

tuyg'ularini yuzaga keltirishga yordam beradi. Lekin tarbiya samarasi eng avvalo, maqsadga erishishga intilishdagi pedagogik jarayonda, jismoniy va ahloqiy tarbiyaning o'zaro aloqasini qanchalik darajada amalga oshirayotganiga bog'liq.

Kurash turlari jismoniy tarbiya vositasi sifatida jismoniy harakatning har xil bo'g'inlarida keng qo'llaniladi.

Ta'lim tizimida kurash turlari maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi va oliy ta'lim muassasalari jismoniy tarbiyasi dasturlariga kiritilgan. O'rta va katta maktab yoshidagi bolalar kurash turlari bilan jismoniy tarbiya darslarida va kurash to'garaklarida, shuningdek BO'SM (bolalar-o'smirlar sport maktablarida) shug'ullanishadi. Oliy o'quv yurtlarida kurash turlari bilan akademik darslarda va seksiyalarda ixtiyoriy ravishda shug'ullanadilar.

Ishlab chiqarish va har-xil muassasalarning ishchi va xizmatchilarining birlashgan kasaba tashkilotlarida kurash turlari keng tarqalgan.

Kurash turlari qishloq joylarda yashovchi aholi o'rtasida katta shuxrat qozongan. Navro'z, xalq sayillari, to'y-tantanalarda milliy kurash bo'yicha kurash musobaqalari uyushtiriladi. Bu tadbirlarda yetti yoshdan yetmish yoshgacha bo'lgan aholi qiziqish bilan qatnashadi.

Kurash turlari – qurolli kuchlarda harbiy xizmatchilar, ichki ishlar xodimlarining jismoniy tayyorgarligining asosiy vosiyalaridan biridir. Milliy armiyamizning MHSK sport tashkilotida, IIV ning maxsus otryadlarida, DHX ning “Burgut” maxsus bo'linmalarida kurash turlari a'zolari asosiy bo'lakni tashkil etadi. Ularning ba'zilari yuqori sport natijalariga erishishgan. Masalan, D.Abrayev DHX ning “Burgut” maxsus bo'linmasi tarkibiga kiradi. U 2017 yilda Kurash bo'yicha jahon chempioni unvoniga sazovor bolgan.

Xulosa. Kurash turlarining jismoniy tarbiya tizimidagi o'rni, eng avvalo, bu sport turlarining hayotiy zarurligi bilan shartlanadi. Lekin, jismoniy tarbiya tizimida kurash turlarining tutgan o'rnini aniqlaydigan asosiy narsa – uning jismoniy rivojlanish va yoshlarni tarbiyalashning samarali vositasi sifatida muhimligidir.

Buyuk kelajak avlodlarini jismoniy barkamollikka erishtirishda kurash turlarining asosiy yo'nalishlarini yanada ko'proq va ta'sirchan qilib targ'ibot qilish lozim. Bu ishda yosh mutaxassislar, olimlar, murabbiylar, ayniqsa magistrilar hamda talabalar bevosita ishtirok etishlari, o'zlarining nazariy bilim hamda amaliy malakalarini muntazam ravishda oshirib borishlari shartdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyanob xalqimiz bilan birga quramiz. T. 2017.

«Kurash» milliy sport turini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-3306-sonli Qarori.

Kerimov F.A. «Sport kurashi nazariyasi va usuliyoti» T., 2001 y.

Nurshin J.M., Salamov R.S., Kerimov F.A. O'zbekcha milliy sport kurashi. Darslik, Toshkent, 1993 y. 207 b.